

Po'lat MO'MIN

SHE'RLAR

Po'lat Mo'min (taxallusi; asl ism-sharifi Mo'minov Po'lat) (1922.24.12 – Toshkent – 2004.2.3) – bolalar shoiri. O'zbekiston xalq yozuvchisi (1992). O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1983).

Dastlab pedagogika bilim yurtini (1939), so'ng Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika institutini tugatib (1944), o'qituvchilik bilan shug'ullangan (1944–47). «Lenin uchquni» gazetasida adabiy xodim (1948–50), O'zbekiston davlat nashriyotida bo'lim mudiri (1951–52), respublika Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi (1954–60), Madaniyat vazirligi krshidagi San'at ishlari boshkarmasida dramaturgiya bo'yicha bosh muharrir (1962–64) bo'lib ishlagan.

Ilk she'rlar to'plami – «Sayrang, qushlar (1949). Shundan keyin uning «Tong kuylari» (1949), «Oltin boshqolar» (1951), «Tish cho'tkasi ertagi» (1955), «Hunardan unar» (1958), «To'g'ri o'sgan gul bo'lur» (1960), «Aql qayerda bo'lar» (1962), «Oltin nay» (1967), «Yaxshilarga o'xshasam» (1968), «Rahmatga rahmat!» (1969), «Eson va Omon» (1973), «Ertaqdan ertakka» (1989), «Ertaklar yaxshilikka yetaklar» (1984), «Yurak zavqu dardlarim, aytar baytu fardlarim» (1993), «Bug'doy bobo» (1995), «Bolajon, bolajonim» (2003) va boshqa bolalarga bag'ishlangan she'r va ertaklardan iborat to'plamlari, «Kuldi xiyol» (1964), «Gul va piyoz» (1971), «Qo'shiq aytib» (1985) singari qo'shiqlardan tashkil topgan kitoblari nashr etilgan.

Po'lat Mo'min mumtoz o'zbek adabiyoti an'analarini davom ettirib, g'azal, tuyuq, fard janrlarida ham ko'plab asarlar yaratgan. Uning

500 dan ziyod qo'shiqlari g'azal janrida yozilgan.

Po'lat Mo'minning bolalar hayotidan olingen «Qovoqvoy bilan Chanoqvoy», «Suqatoy va Konfetvoy» (1970), «Bahodirning botirligi» (1972), «Ona bolam deydi, bola onam deydi» (1975), «Oq fil yo'qoldi» (1983), «Tuyakush-boyaqish» (1987) pyesalari respublika teatrlarida sahnalaشتirilgan.

A. S Pushkin, V. V. Mayakovskiy, S. Marshak, S. Mixalkov, A. Barto va boshqa rus yozuvchilarining bolalarga bag'ishlangan asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan (1998).

09

KULDI XIYOL, INDAMADI

Ey go'zal, noming na deb, berdim savol indamadi,
Mahliyo etdi tamom oftobjamol, indamadi.

Bog'ida tanho o'zi gulmi terar tong chog'ida?
Guldayin kulgan chiroy bo'ldimi lol, indamadi?

Bog'ini qilgan ekan san'atidan gulga makon,
Kokilin asta silab o'tsa shamol, indamadi.

Qo'lida guldastasin menga berar deb o'ylasam,
Bag'rige bosdi gulin, kului xiyol, indamadi.

Der edim men o'zima: «Behudaga tashlama gap»,
Bilmadim, ul kim ila aylar visol, indamadi.

Yorini ta'rif etib kuylar edi ko'nglida ul,
Javdirar erdi ko'zi, surdi xayol, indamadi.

Ko'nglida boshqa birov, sevgi vafodori yashar,
Shu sabab Mo'min so'zim keldi malol, indamadi.

YOR JAMOLIN O'YLASAM

Komiljon Baratovga

Ixtiyorim o'zda qolmas, yor jamolin o'ylasam,
Qalbimga bergay harorat, nur – kamolin o'ylasam,
Bog'larimda gul ochilgay ishq niholin o'ylasam,
Bir ajib orom bag'ishlar so'zlar bolin o'ylasam,
Yanglisharman gaplarimdan yor savolin o'ylasam.

Yor biror bor o'ylagaymi, eslagaymi u meni?

Menga o'xshab intizormi, izlagaymi u meni?
Yo ishongan do'stlarimga so'zlagaymi u meni?
Yo'llarimga ko'z tutib yo ko'zlagaymi u meni?
Fikru yodim bo'ldi chalkash, yor xayolin o'ylasam.

O'ylab-o'ylab dil uyida hech o'yimga yetmadim,
Behalovat ko'yda qoldim, o'zga yo'lga ketmadim,
Bu halol sevgimni, do'stlar, barchadan berkitmadim,
O'ylarim ilhom berib, ne-ne g'azallar bitmadim,
Bo'ldi dushvor ushbu holim, labda holin o'ylasam.

Uchmasa baxtim qushi bir kun kutarman sog'inib,
O'z bog'imdan, chin dilimdan, gul tutarman sog'inib,
O' yetarman vasliga men, yo o'tarman sog'inib...
Sabru toqat birla, Mo'min, yor kutarman sog'inib,
Ko'zlarimdan uyqu qochgay, yor visolin o'ylasam.

EY, MUHABBAT

(Xonanda Faxriddin Umarovga)

Ey, muhabbat, shunchalar fusunkorsan,
Ey, muhabbat, orombaxsh beg'uborsan,

Ey, muhabbat, gohida dilozorsan,
Ey, muhabbat, qalbimda mudom borsan.

Mushtoqdirman doimo mehringga men,
Har yurakka tushirgan muhringga men,
Lol qolganman ko'rsatgan sehringga men,
Ey, muhabbat, chindan sen sehrkorsan.

O'ylamagan yurakni o'ylatasan,
O'ynamagan yurakni o'ynatasan,
So'ylamagan tilni ham so'ylatasan,
Ey, muhabbat, umrimda bir bahorsan.

Yo'l qo'ysan ba'zida xatoga ham,
Barobarsan gado-yu podshoga ham,
Ne kulfatlar solmading Layloga ham,
Ey, muhabbat, sen misli hukmdorsan,

Istardim men, dillarni kuydirmasang,
Hijronlarga aslo yo'l qo'ydirmasang,
Oshiqni ham jonidan to'ydirmasang,
Ey, muhabbat, malhamu shifokorsan.

Bitilganmi birorta qonun senga,
Etay ta'zim yurt uchun har kun senga,
Davrim bergen yangicha mazmun senga,
Ey, muhabbat, Mo'minga madadkorsan.

ISHONAMAN KO'ZINGGA

Sevaman der ko'zlarining,
Sevmayman der so'zlarining.
Gar sevmasang ne uchun,
Yonib turar ko'zlarining?

Yashirsang ham tilingda,
Yashirmaysan dilingda.
Ishonaymi so'zingga?
Ishonaymi o'zingga?
Ishonaman ko'zingga.

Yuzing to'la oftob bor,
O'zingda ming odob bor.
Vafo so'zi yozilgan
Ko'zlariningda kitob bor.

Yashirsang ham tilingda,

Yashirmaysan dilingda.

Ishonaymi so'zingga?

Ishonaymi o'zingga?

Ishonaman ko'zingga.

Uchrashganda, jonona,

Bo'lma buncha hayrona.

Nechun shoshib ketasan,

Izlab turli bahona?

Yashirsang ham tilingda,

Yashirmaysan dilingda.

Ishonaymi so'zingga?

Ishonaymi o'zingga?

Ishonaman ko'zingga.

MEN SEVAMAN, SEN...

Men sevaman, sen sevasanmi?

Meni yo'qlab bog' kezasanmi?

So'zlarimdan yo bezasanmi?

Yuragimni hech sezasanmi, –

Men sevaman, sen sevasanmi?

Maftunlikda o'zim bo'lib ko'r,

Jamolingni ko'zim bo'lib ko'r,

Dilimdag'i so'zim bo'lib ko'r,

Yuragimni hech sezasanmi, —

Men sevaman, sen sevasanmi?

Olib ketar har yon xayolim,

Qanday tushdi senga savolim?

Gar sevmasang ne kechar holim?

Yuragimni hech sezasanmi, —

Men sevaman, sen sevasanmi?

Har kim uzar yoqtirgan guldan,

Suv ichadi ko'ngil ko'ngildan,

Yurgin vafo ko'rsatgan yo'ldan,

Yuragimni hech sezasanmi, —

Men sevaman, sen sevasanmi?

Jonon, senga faqat zorim bor,

Zorim boru qo'lda torim bor.

Vafo degan dil qarorim bor,

Yuragimni hech sezasanmi, –
Men sevaman, sen sevasanmi?

Ko'ngling bo'lса tutmagil pinhon,
Mayli etgil ming bor imtihon,
O'ylab ko'rgin, o'ylab ko'r, jonon,
Yuragimni hech sezasanmi, –
Men sevaman, sen sevasanmi?

SHOSHMAY TUR

Ko'nglim olgan jonona sal shoshmaytur,
O'ylaganim aytay tugal, shoshmaytur.
Ko'p uyalma jonom, bir gal shoshmaytur.
So'zi asal, o'zi go'zal, shoshmaytur.

Xayolingga keltirmagil yomon o'y,
Bog'da gullar sening uchun sochar bo'y.
Sadoqatim bir umrlik, bilib qo'y,
Intizorman men har mahal, shoshmaytur.

Gulzorimdan senga loyiq gul topdim,
Yuragimdan yuragingga yo'l topdim.

Tilagimni tilagingday mo'l topdim,
Ko'nglim olgan jonona sal, shoshmaytur.

CHIDAGANGA CHIQORGANDIR

Muhabbatni
Chiqorgandir chidaganga
Goho huzur,
Goho azob jon-u tanga,
Chidaganga chiqorgandir
Chidaganga...

Chidaganlar chiqar taxtga,
Erishgaylar ishqiy baxtga.
Qomatlarni kalovlatar,
Vujudlarni olovlatar.
Muhabbatni chiqorgandir
Chidaganga...

Kitobi yo'q o'qimakka,
Qushday qo'nar har yurakka.
Hech qayonga ketmas uchib,
Kezaverar jonne quchib...

Muhabbatni chiqorgandir

Chidaganga...

Ko'zlarnimi qamashtirgay,

Yo'llardanmi adashtirgay,

Bordir rohat iztirobi,

Visol erur sarhisobi.

Muhabbatni chiqorgandir

Chidaganga...

QO'SHIQ AYTIB...

Qo'shiq aytib, yigit, seni o'ylatdimmi?

Uxloqmiding yo uyqungdan uyg'otdimmi?

Nelar bo'ldi, bezovtasan, termulasan?

Yo bemahal qalb toringni so'ylatdimmi?

Sevgi yomon, fil gavdangga ishonmagil,

Tog' bo'lsang ham o'z o'rningdan qo'zg'atdimmi!

Muncha menga qarayverib xo'rsinasan,

Sevgi gulim bo'ylarini to'zg'atdimmi?

Bog'imdani gul uzaman deb umid qilma,
Gulzorimga begonani yo'latdimmi?

Yo'lim boshqa, dilim boshqa, sevganim bor,
Qo'shiq aytib yuragingni o'ynatdimmi.

MALOHATLARGA

Ishqingda yetkaz saodatlarga,
Qoldirma, jonio, malomatlarga.

Pinhon et, derlar, sevgingni eldan,
Yo bosh egaymi ul odatlarga?

Parvo etmaysan hajring o'tidan,
Qalbimda yongan haroratlarga.

Kechma so'zingdan, aslo ishonma
Boshqalar qilgan siyosatlarga.

Ming bor sinab ko'r, o'shal so'zim so'z,
Qo'ymasin seni xijolatlarga.

Kular istaklar kulgan hayotda,
Berilma ortiq hayolotlarga.

Sendursan azal-oxir sevganim,
Eltar vafoying farog'atlarga.

Vafodoringman, Mo'min, umrbod,
Boqmagil o'zga malohatlarga.

QARASAM, QARAMAYSAN

Klara Jalilovaga

Qarasam qaramaysan,
Qaramasam qaraysan,
Sevingni yashirolmay,
Jonom, endi qalaysan?

Ikkimiz so'zlashmaymiz,
So'zlashishga shoshmaymiz,
Bilishimcha, jonginam,
Bu yo'lida adashmaymiz.

Ko'nglimiz so'zlashadi,

Visolmi ko'zlashadi?

Qarash bilan ko'nglimiz

Bir-birin izlashadi.

Ko'ngilning o'zi yo'li bor,

Vafo degan guli bor,

Sezilar-ku qarashdan

Kimda kimning ko'ngli bor.

Qarasam qaramaysan,

Qaramasam qaraysan,

Sevingni yashirolmay,

Jonim, endi qalaysan?

SERQUYOSH O'ZBEKISTON

Saodat bergen chiroy,

Bir ko'rghan ming maqtar joy,

Paxta, mevada mashhur,

Kunlari bayramga boy –

Serquyosh O'zbekiston,

Qalbi yosh O'zbekiston.

Qirchillama yigitday,
Parvoz etgan burgutday,
Vodiylari jilvagar
Ko'z olar nur, yoqutday –
Qo'li gul O'zbekiston,
Yo'li nur O'zbekiston.

Kelajakka kuch yiqqan,
Xirmoni ko'kka chiqqan.
Keksalaru yoshlari
Mehnat bilan chiniqqan –
Paxtakor O'zbekiston,
Baxtiyor O'zbekiston.

Yurtiga shon keltirgan,
Do'sti bilan gul tergan,
San'atkori, olimi
Hayotga chiroy bergen –
Mehmondo'st O'zbekiston,
Odil so'z O'zbekiston.

Shodlik to'la qo'shig'i,
Obod bog'u qo'rig'i.
Qani, yoz deb turibdi
Keng chamanda yutug'i –
Mustaqil O'zbekiston,
Yashnagil O'zbekiston.

Farzand bo'lib maqtayman,
Xursand bo'lib maqtayman,
Shu o'lka suvin ichdim,
Dilband bo'lib maqtayman –
Serquyosh O'zbekiston,
Qalbi yosh O'zbekiston.

SIZGA TA'ZIM

Ona yurtim a'lolari, sizga ta'zim,
Jononlari, momolari, sizga ta'zim,
San'atimiz shaydolari, sizga ta'zim,
Yurak torim oshnolari, sizga ta'zim.

Qo'shiqlarim gulin teray izingizdan,
Ilhomlandim salomingiz, so'zingizdan,

O'qib oldim ma'nolarni ko'zingizdan,

Chamanzorim ra'nolari, sizga ta'zim.

Baxtiyorsiz, bu baxtingiz etsin davom,

Mannundirman baxsh etolsam zavqu orom,

Qayda bo'lsa o'zingizga etursiz rom,

O'l kam ko'zi shahlolari, sizga ta'zim.

Qo'shiqlarim ijodkori asli sizlar,

Sevishganlar – mard yigitlar, jonon qizlar,

Qalbingizdan Mo'min doim qo'shiq izlar,

Davronimiz donolari, sizga ta'zim.

INSONNI INSON URMASIN

Hech qayerda, hech qachon insonni inson urmasin,

Onalar tinchi ketib, faryod-u tug'yon urmasin.

Dilda nelar borlig'in vijdon hamisha payqagay,

Boshqarib turgan seni qalbingda vijdon urmasin.

Bu hayot past-u baland, turlicha holat uchragay,

Nogahon ustozini shogirdi nodon urmasin.

Deydilar mehmon aziz, joy ber ko'ngillar to'ridan,
Es ketib, odob ketib mehmonni mezbon urmasin.

El ishonchi har qachon senga madadkor aslida,
Bosmasin aslo g'urur, yo'lanki shayton urmasin.

Baxsh etar bilsang huzur shukronalik, shukronalik,
Baxti oz deb o'ylama, bil, davri-davron urmasin.

Ont ichib, non-u tuzing xar dam muqaddas saqlagil,
Ey Mo'min, hech kimsani ont urmasin, non urmasin!

ONADIR UL, ONADIR...

Onalar bor olam qo'shiqxonadir,
Onalarni maqtasa dil qonadir,
Farzand uchun kim quvonib yonadir?
Onadir ul, onadir ul, onadir.

Yuragidan yangi yurak ko'chirgan,
Oq sutiga mehrin qo'shib ichirgan,
Gunoh qilsa eng birinchi kechirgan

Onadir ul, onadir ul, onadir.

Kulgan chog'da gullarni ham kuldirgan,
Yo'qlaganda daryolarni to'ldirgan,
Hech qandayin bo'limganni bo'ldirgan –
Onadir ul, onadir ul, onadir.

«Ortimda qol», degan ulug' duoda,
Farzand uchun yashaguvchi dunyoda,
Jahonlarni kezaolgan piyoda –
Onadir ul, onadir ul, onadir.

Odamlarning davrasida tabarruk,
Tabarruklar davrasida eng buyuk,
Eng buyuklar davrasida eng suyuk –
Onadir ul, onadir ul, onadir.

Farzandimga olam oltin olmagan,
Farzand uchun charchamagan-tolmagan,
Farzand uchun ne kunlarga qolmagan...
Onadir ul, onadir ul, onadir.

Ona kabi yurtimiz ham bag'ri keng,

Ona mehri quyoshlarga kelar teng,
Mo'minga ham kimlar ilhom berdi deng?
Onadir ul, onadir ul, onadir.

UZMA DO'STLIK TORINI

Uzma do'stlik torini, bog'lash qiyin,
Ranjisa, do'st ko'nglini chog'lash qiyin.
So'zda do'stingman deya oqlash qiyin,
Do'st bo'lish oson, uni saqlash qiyin,
Uzma do'stlik torini, bog'lash qiyin.

Chin qadrdonlar tug'ishganday zarur,
Yaxshi oshno dilga sochgay shu'la, nur,
Bir tilakdir, bir yurakdir, bir umr,
Do'st bo'lish oson, uni saqlash qiyin,
Uzma do'stlik torini, bog'lash qiyin.

Do'st bo'lib zimdan siring bilsa yomon,
Dilda nolib, tilda o'rgilsa yomon,
Dushman,ing birlan senga kulsa yomon,
Do'st bo'lish oson, uni saqlash qiyin,
Uzma do'stlik torini, bog'lash qiyin.

Yaxshilar bor – oru vijdoningga do'st,
Xalqingga ham yurtu bo'stoningga do'st,
Ba'zilar bor – davru davroningga do'st,
Do'st bo'lish oson, uni saqlash qiyin,
Uzma do'stlik torini, bog'lash qiyin.

Do'stu yorlik maktabin o'z darsi bor,
Do'stga sodiqlikning, Mo'min, farzi bor,
Yaxshi do'stlikning quvonchi, fayzi bor,
Do'st bo'lish oson, uni saqlash qiyin,
Uzma do'stlik torini, bog'lash qiyin.

USTOZLAR

Mehr nuri yog'ar doim ko'zingizdan, ustozlar,
Yursam deyman shu tabarruk izingizdan, ustozlar.

Chin insonlik kitobiga baxtu hikmat bitibsiz,
Odob ila bilim oldim so'zingizdan, ustozlar.

Qalbingizning yo'q g'ubori, mehribonsiz shunchalar,
Quyosh olmish haroratin yuzingizdan, ustozlar.

Fan bog'ining bog'bonisiz, charog'bonsiz ko'ngilga,
Ming ehtirom o'g'lingizdan qizingizdan, ustozlar.

Joy oldingiz bir umrga shogird yurak to'ridan,
Mo'min hayot darsin o'qir o'zingizdan, ustozlar.

KELIBDI-YU KETIBDI

Kecha gulzorga dildor
Kelibdi-yu, ketibdi.
Bir ko'rishga etib zor –
Kelibdi-yu ketibdi.

Bir oz kutib boqmabdi
Nimalardir yoqmabdi.
Sevmas ekanmi zinhor –
Kelibdi-yu ketibdi.

Sevganim gunohimmi?
Tinglamasdan ohimni.
Kimlardandir etib or,
Kelibdi-yu ketibdi.

Ochar edim qalbimni,
Bilar edim qadrimni.
Demay ismimni bir bor –
Kelibdi-yu ketibdi.

Bevafolik aylarmi,
Va'dasidan aynarmi,
Bunday qanday ma'no bor?
Kelibdi-yu ketibdi.

Bu jononning nozimi?
Nozimi, e'zozimi,
Aylab Mo'minni xumor,
Kelibdi-yu ketibdi.

VAFO BILAN KELIBDI

Yor uyiga kelinposhsha
Ibo bilan kelibdi.
Kuyov to'ra yuragiga
Shifo bilan kelibdi.
Asta-asta qadam bosar,

Qutlug' bo'lsin qadamlar,
Hayo bilan xirom aylab,
Himo bilan kelibdi.

To'y oqshomi xonadonga
Nur taralib bir zumda,
Go'yo tunda quyosh chiqib,
Ziyo bilan kelibdi.

Nazokatu chiroyiga
Yoshligi nur qo'shibdi,
Andishayu odob degan
Sarpo bilan kelibdi.

Uzukka ko'z qo'ygan misol
Kuyov bola yonida,
Go'yo kuyov Tohir bo'lib
Zuhro bilan kelibdi.

Sevgi baxtin ko'z-ko'z etar
Ko'z tegmasin baxtiga.

Boshiga baxt qushi qo'nib –
Humo bilan kelibdi.

Bu dargohdan ketmas bo'lib,
Kelgan bo'lsin, ey, Mo'min,
Yuragida ahdu paymon
Vafo bilan kelibdi.

FURSAT – G'ANIMAT

Nafasmi olganing fursat – g'animat

Davrada qilganing suhbat – g'animat.

Luqmai haloling, noning – g'animat,

Tomirda yugurgan qoning – g'animat.

Shirin o'tayotgan vaqting – g'animat,

Qo'lingga tutganing naqding – g'animat,

Ko'rganing totganing ne'mat – g'animat,

Qalbingning sog'lig'i-sihat – g'animat.

Yupunga qilganing ehson – g'animat,

Yaxshiga bo'lganing mezbon – g'animat.

Halovat -huzuring, baxting – g'animat,

O'tirgan o'z o'rning-taxting – g'animat.

"G'animat" deyilgan so'zing – g'animat,

Ey, Mo'min, o'zingga o'zing – g'animat.

KEYINCHALIK DEMA: ATTANG

Neki qilsang, borinda qil onang-otang,
Keyin kechdur, dema afsus, dema attang.
Seni debon ne kunlarni kechirganlar,
Umid birlan oq mehrindan ichirganlar.
Borliginda xizmatinda – korinda bo'l,
Yoninda bo'l, joninda bo'l, borinda bo'l

Borliginda qilg'il barcha muruvvating,
Sarf aylagil alarga sen kuch-quvvating.
Farzand bo'lsang hamishalik keltir savob,
Ikkalasin har soniya qilg'il tavof.
Borliginda xizmatinda – korinda bo'l,
Yoninda bo'l, joninda bo'l, borinda bo'l

Qoqitganlar, ranjitganlar uchrab turg'ay,
Undaylarni ota-onas nomi urgay.
Ikki dunyo alar sendan rozi bo'lsin,
O'zingdayin ularning-da ko'ngli to'lsin.
Borliginda xizmatinda – korinda bo'l,
Yoninda bo'l, joninda bo'l, borinda bo'l.

Unay desang, o'say desang duosin ol,
Shu boisdan yashagaysang xappa-halol.
Qilganlaring farzandingdan qaytib kelgay,
Ko'z o'ngingda rahmatlarni aytib kelgay.
Borliginda xizmatinda – korinda bo'l,
Yoninda bo'l, joninda bo'l, borinda bo'l.

Alar qoni aylanar-ku o'z qoningda,
Mo'minlarday saqla nomin iymoningda.
Sog'lig'indan, chog'lig'indan bo'lg'il ogoh,
Neki qilsang yaxshi ko'zlar erur guvoh.
Borliginda xizmatinda – korinda bo'l,
Yoninda bo'l, joninda bo'l, borinda bo'l.

E'TIQOD O'ZGARMAGAY

E'tiqod iymon erur,

Baxsh etar vijdonga nur.

O'zgarur odob-ibo,

E'tiqod o'zgarmagay.

Tovlanur gullarda rang,

Bir emas, yuz bor qarang.

O'zgarur obu havo,
E'tiqod o'zgarmagay.

Barhayotdir jon ila,
Aylanur ul qon ila.
O'zgarur do'st-oshino,
E'tiqod o'zgarmagay.

Kim uni pok saqlagay,
El esa ardoqlagay.
O'zgarur nash'u namo,
E'tiqod o'zgarmagay.

Kim agar o'zgartirur,
Bir kuni vijdon urur...
Qilmag'il, Mo'min, xato,
E'tiqod o'zgarmagay...